



## CREATING CONVENIENCE FOR TAXPAYERS THROUGH AUTOMATION OF PERSONAL INCOME TAX REPORTING

**Ibodullayev Abror Akhrorovich**

Tashkent State University of Economics "Corporate Finance and  
Securities" Department Associate Professor Phd

**Umaraliyev Asrorbek Abdurashidovich**

Tashkent State University of Economics "Taxes and Budget Accounting"

Faculty St-53/24 Student of group

E-mail: asrorbekumaraliyev80@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15593502>

### ARTICLE INFO

Received: 26<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> May 2025

Online: 31<sup>st</sup> May 2025

### KEYWORDS

Tax system, automation,  
reporting, financing, state  
budget, personal income  
tax, state tax policy,  
infrastructure, income tax  
revenues, digitalization,  
taxpayers.

### ABSTRACT

*The article considers the issues of creating convenience for taxpayers through the automation of personal income tax reporting. The role of personal income tax in the state budget and the impact of tax reporting automation on tax collection and revenue are studied. The introduction of electronic reporting in the tax system in Uzbekistan and the development of video guides for taxpayers to use convenient services, benefits and discounts are analyzed, as well as the reforms being implemented. In addition, conclusions are drawn about the role of tax reporting automation in improving the tax culture of taxpayers and its contribution to increasing tax revenue to the state budget, and proposals are made for future implementation.*

## JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING HISOBOTINI AVTOMATLASHTIRISH ORQALI SOLIQ TO'LOVCHILARGA YENGILLIK YARATISH

**Ibodullayev Abror Axrorovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrası  
dotsenti Phd

**Umaraliyev Asrorbek Abdurashidovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Soliqlar va budjet hisobi" fakulteti St-53/24

guruh talabasi E-mail: asrorbekumaraliyev80@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15593502>

### ARTICLE INFO

Received: 26<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> May 2025

Online: 31<sup>st</sup> May 2025

### ABSTRACT

*Maqolada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisobotini avtomatlashtirish orqali soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish masalalari ko'rib chiqiladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini davlat budjetida tutgan o'rni va soliq hisobotini avtomatlashtirish tufayli soliq yig'ilishiga va tushumiga qilgan ta'siri o'rganiladi. O'zbekistonda soliq tizimida hisobotni elektron tarzda topshirishning joriy etilishi hamda soliq to'lovchilarga qulay xizmatlar, imtiyozlar va chegirmalardan foydalanish uchun video qo'llanmalar ishlab chiqish soliq to'lovchilar orasida targ'ib qilish va shu bilan birga amalga*



## KEYWORDS

*Soliq tizimi, avtomatlashtirish, hisobot topshirish, moliyashtirish, davlat budjeti, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, davlat soliq siyosati, infratuzilmalar, daromad solig'i tushumlari, raqamlashtirish, soliq to'lovchilar*

*oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari soliq hisobotlarini avtomatlashtirish orqali soliq to'lovchilarda soliq to'lash madaniyatini yaxshilashdagi o'rni va davlat budjetiga soliq tushumini oshirishga qo'shgan roli haqida xulosalar beriladi va kelgusida amalga oshirish uchun takliflar ham berib o'tiladi.*

**KIRISH.** Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat budjetining asosiy manbalaridan hisoblanadi. Chunki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat budjetini shakllantirishda muhim rol o'ynadi ya'ni aholini daromadlari oshgan sari daromad solig'i tushumlari ham yashilanadi bundan tashqari ijtimoiy dasturlarni moliyashtirishda va infratuzilmalarni qo'llab-quvvatlashda ham to'gridan to'g'ri ishtirok etadi. Shuningdek JShODSni yig'ish jarayoni, hisobotlarni to'ldirish va topshirish hamda soliq tizimida sodir bo'layotgan o'zgarishlardan soliq to'lovchilarni xabardor qilib borish maqsadida juda ko'plab muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risidagi farmonida soliq tizimida ko'plab muammolar aytib o'tiladi va bu muammolarni bartaraf etish bo'yicha bir qator muhim vazifalar belgilandi. Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib: soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish obyektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlaridan qilib belgilandi.<sup>1</sup> Bu amalga oshiriliyotgan islohotlar natijasida soliq to'lovchilarga JShODSni hisobotini topshirish jarayonini avtomatlashtirish va soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida soliq to'lovchilarga qulayliklar yaratiladi va soliqlarni yig'ilishini yaxshilaydi hamda soliq to'lovchilarda soliq to'lash madaniyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda soliq to'lovchilar va davlat o'rtasida munosabatlarni mustahkamlashga olib keladi. JShODS hisobotini topshirishni osonlashtirish orqali O'zbekiston soliq tizimida qog'ozbozlik va ko'plab hujjatlar almashinuvini oldini oladi. Shu kabi muammolarni oldini olish maqsadida yuqorida aytib o'tilganidek islohotlar va soliq

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.06.2018 yildagi PF-5468-son

tizimida raqamlashtirish jarayonlari ham amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari Soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushumini hisobga olish hamda nazorat qilish darajasini oshirishga, soliq tushumlarining qo'shimcha manbalarini aniqlash va soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olishga, shuningdek soliq to'lovchilar uchun ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar turini kengaytirish hamda sifatini oshirishga yo'naltirilgan davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish va faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida: soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tahlilning avtomatlashtirilgan ilg'or usullarini keng joriy etish;

soliq to'lovchilarning soliq va moliya hisobotlari hamda soliq to'lovchilar to'g'risidagi boshqa axborotlarni avtomatlashtirilgan tarzda hisobga olish;

soliq ma'muriyatchiligi jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni keng targ'ib qilish choralari ko'rildi.<sup>2</sup> Bu amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi soliq to'lovchilarga qulay interaktiv xizmatlar yaratish va ularni soliq to'lashdan qochish kabi holatlarni oldini olishdan iboratdir. O'zbekiston soliq tizimida bu kabi imkoniyatlarni yaratilishi natijasida JShODSni davlat budjetidagi ulushi ham oshishiga olib keladi.

**Metadologiya.** Ushbu maqolani tahlil qilish, o'rganish jarayonida bir nechta tadqiqot usullari, tahliliy yondashuvlar va sifatli hamda miqdoriy, statistik tahlil va adabiyotlar tahlili, hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ushbu mavzuni yanada chuqurroq o'rganish uchun hukumat qarorlari, Soliq qo'mitasi va Iqtisodiyot va Moliya vazirligining rasmiy hisobotlaridan foydalanildi.


**Tahlil va Natijalar.** Ushbu maqola doirasida amalga oshirilgan tahlil natijalari O'zbekiston soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisobotini topshirishni soddalashtirish soliq to'lovchilarda soliq to'lashga bo'lgan munosabatini keskin o'zgarganini ko'rsatdi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisobotini topshirishni avtomatlashtirish jarayoni orqali bu soliqni budjetdagi tushumi ham yildan yilga o'sib borayotganini ko'rsatmoqda. Shu kabi hisobotlarni elektron tarzda to'ldirish va topshirish orqali korrupsiyaviy holatlari ham kamayganligi ko'rildi.



<sup>2</sup> Toshkent sh., 2012-yil 30-oktabr, PQ-1843-son

## 1-rasm. Soliq tizimini takomillashtirish konsepsiyasi<sup>3</sup>

Yuqoridagi rasmda ko'rsatilgan O'zbekiston soliq tizimini takomillashtirish to'g'risidagi farmonda ham soliq hisobotini soddalashtirish va avtomatlashtirish nazarda tutilgan. Shuningdek soliq tizimida zamonaviy raqamli texnologiyar bilan ta'minlash hamda ularni takomillashtirish avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar bilan integratsiyalash jarayoni ham o'rganildi. Natijada JShODSni to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida aloqalarni mustahkamlashga olib keladi. Tahlil jarayoni shuni ko'rsatadiki hisobotlar shaklini avtomatlashtirish nafaqat soliq tizimida balki pensiya tizimida pensiya hisobotlarini avtomatlashtirish jarayonlari ko'rsatildi. Bu ishlar natijasida soliq to'lovchilarga qulay xizmatlar yaratish balki o'z vaqtlari va resurslarini tejashga olib keladi.



## 2-rasm. JShODSni yillar kesimida o'sishi (mlrd so'mda)<sup>4</sup>

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisobotini topshirishni avtomatlashtirish natijasida davlat budjetiga tushumi yildan yilga o'sib kelmoqda. Bundan tashqari davlatning umumiy budjetiga ham katta hissasini qo'shib kelayotgani tahlil qilindi. 2022-2024 yillar oralig'idagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumi tahlil qilinganda: JShODS davlat budjetiga tushumi 24284,5 mlrd so'm tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 29 917,4 mlrd so'mga yetdi va oldingi yilga qaraganda 5 632,9 mlrd so'mga o'sgan. 2024-yilga kelib JShODS tushumi 35 383,9 mlrd so'mni tashkil etdi avvalgi yilga nisbatan sezilarli darajada o'sganini tahlil natijalari ko'rsatdi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining keskin tarzda o'sishi O'zbekiston soliq tizimini raqamlashtirilishi hisobotlarni topshirish jarayonini avtomatlashtirish orqali bu natijalarga erishib kelinmoqda. Bu o'sish jarayoni davlatni moliyaviy barqaror bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Taklif va xulosalar.** Maqola tahlil natijalariga tayangan holda O'zbekiston soliq tizimi uchun muhim bo'lgan taklif va xulosalar berildi. Shuningdek jismoniy shaxslar dan olinadigan

<sup>3</sup> Chizma muallif tomonidan ishlab chiqildi. Manba O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.06.2018 yildagi PF-5468-son

<sup>4</sup> Chizma muallif tomonida ishlab chiqildi. Manba <https://openbudget.uz/home>



daromad solig'ini hisobotini yanada soddalashtirish umuman olganda soliq tizimini yanada takomillashtirish uchun soliq to'lovchilar tushunadigan qulay va foydalanishga oson bo'lgan interfeys yaratish, soliq mobil ilovasiga hisobot topshirish jarayonini integratsiyalash hamda bu tizimdan foydalanish bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqish, soliq to'lovchilar orasida targ'ib qilish. O'zbekiston soliq tizimida JShODSni hisobotini avtomatlashtirish ijobiy natijalarni berdi. Ushbu tizimda yaratilayotgan imkoniyatlar shu jumladan elektron xizmatlar va interaktiv qo'llanmalar soliq to'lovchilarga soliqlarni to'lash uchun qulay imkon yaratadi.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.06.2018 yildagi PF-5468-son
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-sonli "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [qarori](#).
4. Soliqlar va soliqqa tortish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.V. Vahobov, A.S. Jo'rayev; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Moliya in-ti, — Toshkent: Sharq, 2009. — 448 b.
5. Soliqlar va soliqqa tortish (II qism):Darslik / Jo'rayev A.S., Safarov G.A., Meyliyev O.R.– T.: ToshkentMoliya instituti, 2019. –264b.
6. Pulatova, M., & Rafieva, M. (2024). Soliqlar va soliq tizimini optimallashtirish. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(10), 29-33.
7. Khamidovich M. X. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG 'INI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 44. – №. 5. – С. 444-450.
8. <https://stat.uz/uz/>
9. <https://lex.uz/>
10. <https://openbudget.uz/home>